

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI
DAVLAT QO`MITASI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

Qo'l yozma huquqida
UDK 004.4'272

BOBOMURODOV OTABEK YULDASHOVICH

**“AXBOROT - TANUVCHI TIZIMLAR” FANIDAN AMALIY VA
LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI O'TKAZISH UCHUN
VIRTUAL LABORATORIYALAR MAJMUASINI YARATISH**

**5A111001 – «Kasb ta'limi»
(Informatika va multimedia texnologiyalari)
Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

t.f.n., dots. Q.A.Bekmurodov

S a m a r q a n d - 2014

M U N D A R I J A

	Kirish	4
I bob.	Elektron o'quv materiallari va virtual laboratoriyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni	14
1.	Asosiy o'quv materiallarining elektron shakli.....	14
2.	Virtual laboratoriya va uning natur laboratoriyalardan farqlari.....	15
3.	Virtual o'quv laboratoriyani loyihalash aspektlari.....	20
4.	Virtual laboratoriyalarning tarkibiy qismlari va ularni tashkil qilish.	23
5.	Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashning dasturiy vositalari.....	28
	I bob bo'yicha xulosa	32
II bob.	“Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish tahlili.	33
1.	“Axborot-tanuvchi tizimlar” fanining amaliy va laboratoriya ishlari tahlili.....	33
2.	Laboratoriya ishlarini bajarishning maqsadi va mazmuni.....	35
3.	Amaliy va laboratoriya ishlari tahlili bo'yicha hisobot tayyorlash.	35
	II bob bo'yicha xulosa	37
III bob.	Moodle tizimi uchun “Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan multimediali elektron o'quv kurs ishlab chiqish	38
1.	Moodle da kursni yaratish.....	38
2.	Kursda nazorat shakllari.....	49
3.	MOODLE platformasiga amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini joylashtirish.....	54
	III bob bo'yicha xulosa	56
IV bob.	“Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan yaratilgan virtual laboratoriyaning tarkibi va uni ta'lim jarayonida qo'llash	57
1.	Virtual laboratoriyaning tarkibiy tuzilishi.....	57
2.	Virtual laboratoriya bilan ishlash va undan foydalanish tartibi.....	58
3.	Kompyuter sinfxonalarida hayot faoliyati havfsizligiga rioya etish qoidalari.....	65
	IV bob bo'yicha xulosa	67
	Xulosa	68
	Adabiyotlar ro'yxati	70
	Ilovalar	73
	1-ilova. VL majmuasiga kirish qismi dastur kodi.....	73
	2-ilova. Asosiy oyna dastur kodi.....	74
	3-ilova. 1-virtual laboratoriya dasturi kodi.....	77

QISQARTMA SO'ZLAR

EO'UM – elektron o'quv-uslubiy majmua

MEO'Q – multimediali elektron o'quv qo'llanma

OTM – oliy ta'lim muassasasi

EQ – elektron qo'llanma

VS – virtual stend

VL – virtual laboratoriya

MO' – masofadan o'qitish

VK – virtual kutubxona

MOODLE – Modular Object - Oriented Dynamic Learning Environment

(Modulli obyektga mo'ljallangan dinamik boshqaruv muhti)

VO' – virtual o'qitishni bildiradi.

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Respublikamizda olib borilayotgan tub iqtisodiy islohotlar ta'lim sohasida ham izchil va uzluksiz o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi kadrlarni tayyorlash sohasida jahon andozalarga mos ravishda tub o'zgarishlar qilinishini talab etadi. Ma'lumki, firmalar, korxonalar va tashkilotlarning samarali ishlashini undagi mavjud bo'lgan malakali va bilimli xodimlar ta'minlaydi. Shu jihatdan hozirgi vaqtda malakali va ishbilarmon xodimlarni shakllantirishga erishish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi[1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-1730 sonli qarori, 2012 yil 1 fevraldagi «Joylarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyotida, bu sohadagi amaliy-ilmiy va fundamental tadqiqotlarni rivojlantirishida yana bir muhim bosqich bo'lib qoladi[1]. Prezidentimiz I.Karimov XXI asrni ma'naviy-ma'rifat asri, ilm-fan madaniyat va axborotlar asri deb ta'riflar ekan, bu bilan hozirgi davrning muhim belgisi va xususiyatini ham belgilab berganini payqab olish qiyin emas.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq bo'lib, respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu masalada "... bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan Internet tizimini keng joriy etish, yoshlarimizni O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o'zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo

e'tiborimiz markazida turishi lozim"ligini ta'kidlaydi [7].

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoiti iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'li juda dolzarb ekanligini isbotlab berdi. Bu borada Prezidentimizning “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” kitobida ham quyidagi fikrlari keltirilgan: “... innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish - O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir”. Buning uchun avvalom bor tinchlik va barqarorlik muhimdir[2].

Bu kabi vazifalarni bajarish kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga oshirishning bosqichlarida belgilab berilgan bo'lib, uning kelajakdagi istiqboli Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta'lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash“ zarurati e'tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi”[5]. Bu yo'nalishlar Prezidentimizning 2002 yil 30 mayda qabul qilingan “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” to'g'risidagi farmonida ko'rsatilgan vazifalarni bevosita to'ldirib, ularning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida» 2005 yil 28 sentabrdagi PQ-191-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2008 yil 20-iyundagi 22-son majlis bayoni ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lim muassasalarida

yaratilayotgan va amalda qo'llaniladigan fanlarning elektron o'quv-metodik majmualariga bo'lgan asosiy talablarni belgilab beradi.

Fanning elektron o'quv-metodik majmuasi (keyingi o'rinlarda EO'MM) deganda, Davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talablar asosida talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni kompetentlik darajasida rivojlantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ko'rinishdagi o'quv-metodik manbalar, didaktik vositalar va materiallar, mezonlarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo'lib qoladi.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Axborot texnologiyalarining pedagogik asoslari borasida chet ellardagi, masalan, AQSh texnologiyalar milliy universiteti (<http://www.ntu.edu>), Gollandiyaning ochiq universiteti (<http://www.ou.nl>), Isroilning ochiq universiteti (<http://www.open.ac.uk>), Ispaniyaning masofadan o'qitish milliy universiteti (<http://www.ceac.com>), Xitoyning Shanxay teleuniversiteti (<http://www.shtvu.edu.cn>), Britaniya ochiq universiteti (<http://www.open.ac.uk>) va Avstraliyaning ochiq turdagi o'qitish agentligi (<http://www.ola.edu.au>) saytlarida axborot texnologiyalari asosida elektron darsliklar, virtual kutubxonalar yaratilganligi va ulardan foydalanish talablari ko'rsatilgan.

Hozirgi paytda ta'lim jarayonini avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirishning qulay vositalaridan biri

kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdir. Kompyuterlarning keng qo'llanilishi o'qituvchilar tomonidan metodik qo'llanmalarni tayyorlashdagi murakkabliklarni bartaraf qilish va bu jarayonni avtomatlashtirish imkonini beradi. Turli xil "elektron o'quv uslubiy majmualar", metodik qo'llanmalarning kompyuterda taqdim etilishi ko'pgina afzalliklarga ega. Shularni hisobga olgan holda magistrlik dissertatsiyasida "Axborot-tanuvchi tizimlar" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun virtual laboratoriyalarni o'z ichiga oluvchi elektron o'quv uslubiy majmua yaratish asosiy maqsad qilib olingan.

Axborot-tanuvchi tizimlar fanidan bir qancha uslubiy ko'rsatmalar yaratilgan bo'lib, fan bo'yicha nazariy ma'lumotlarni jamlovchi hamda amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish uchun virtual laboratoriyalarni bajaruvchi umumlashgan elektron o'quv uslubiy majmua mavjud emas edi. Magistrlik ishida shunday majmuani tayyorlash maqsad qilingan va bu ishning dolzarbligini ifodalaydi.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. "Axborot-tanuvchi tizimlar" fanidan amaliy va laboratoriya ishlarini bajaruvchi virtual laboratoriyalar tayyorlash, timsollarni anglash algoritmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Tadqiqot obyekti "Axborot-tanuvchi tizimlar" fani va ushbu fan bo'yicha yig'ilgan barcha ma'lumotlar, predmeti esa ushbu fan bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishga mo'ljallangan virtual laboratoriya hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda, ta'limda axborot va kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish sohasida yangi "o'quv virtual laboratoriya" so'zi paydo bo'ldi. O'quv virtual laboratoriya ochiq va masofaviy o'qitish g'oyasiga muvofiq bo'lib, ta'lim jarayonidagi moddiy-texnik ta'minot borasidagi muammolarni oz bo'lsada dolzarbligini kamaytiradi[9].

O'quv virtual laboratoriya - bu yakunlangan dasturli mahsulot bo'lib, uning o'ziga hos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy konsepsiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, o'qitish texnologiyasi, baholash usullari va mezonlarini o'z ichiga olgan «Axborot-tanuvchi tizimlar» fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv virtual laboratoriya yaratish.

Tadqiqotga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- “Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish. Ushbu fan sohasida erishilgan ilmiy-texnikaviy yutuqlarni o'rganish.
- “Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan MOODLE tizimida masofaviy multimediali o'qitish kursi yaratish.
- “Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan virtual laboratoriyalar ishlab chiqish.
- yaratilgan virtual laboratoriyalar asosida o'rgatuvchi videoroliklar tayyorlash.
- barcha yig'ilgan ma'lumotlarga asoslanib “Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan virtual laboratoriyalar majmuasini tayyorlash.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Dissertatsiya himoyasiga qo'yilgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

- “Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan fan dasturi, ishchi dastur, taqvim reja, baholash mezonlari kabi me'yoriy hujjatlarni to'plash;
- “Axborot-tanuvchi tizimlar” fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari hamda topshiriqlarini to'plash;

- yig'ilgan ma'lumotlar asosida Moodle tizimida masofaviy o'quv kursi tayyorlash;

- fan bo'yicha virtual laboratoriya yaratishga mo'ljallangan dasturiy vositalarni o'zaro taqqoslab, eng maqbul variantini tanlash;

- virtual laboratoriyani tanlangan dasturiy vositada yaratish usuli va interfeysini tanlash;

- fan bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini virtuallashtirish;

- barcha ma'lumotlarni virtual laboratoriyaga joylashtirib, ularni o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O'qitish metodlarini takomillashtirib turish, metodologik umumiy tan olingan jarayon hisoblanadi. O'qitish metodlarini pedagogik va psixologik tomondan rivojlantirishda taniqli horijiy olimlardan Yu.K. Babanskiy, V.P.Bespalko, I.R. Visotskiy, M.Maxmutov, P.N.Pidkasistiy va boshqalar o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar. Jumladan, L.S.Vigotskiy va S.L.Rubinshteynlar shaxsni rivojlantirishning psixologik asoslarini, P.Ya.Galperin va N.F.Talizinlar aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini, Yu.K.Babanskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Maxmutov va P.N.Pidkasistiylar ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganishlarini tashkil qilishning didaktik va metodik asoslarini, respublikamizning taniqli olimlaridan U.N.Nishonaliyev, N.Saidahmedov, M.Ochilov va N.N.Azizxo'jayevalar dars samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalarini tadqiq etishgan. Pedagog olim S.A.Arxangelskiyning fikricha, ta'lim mazmunini belgilashda, ta'lim muassasasida bo'lajak mutaxassisining tayyorgarligida ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanib borishi va fan-texnikaning tezkor taraqqiyotini hisobga olish zarur. Kibernetika va texnika fanlarini mazmunan va metodik tomonlarini rivojlantirish bo'yicha V.M.Glushkov, A.P.Ershov va V.Q.Qobulov, ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha S.S.G'ulomov, A.A.Abduqodirov, B.Sh.Rajabov va N.I.Taylaqov, oq'itishda kompyuterlardan foydalanish metodikasi bo'yicha A.P.Ershov, A.A.Abduqodirov, M.Aripov, M.P.Lapchik,

E.I Mashbits, E.I Kusnetsov, U.Yuldashev, R.R.Boqiyev va F.M.Zokirovalarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Maxsus fanlardan elektron darsliklarni yaratish tamoyillarini texnologiyasi hamda ularni ekspertizadan o'tkazish uslubi Q.T.Olimov tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, axborotli ta'lim muhitini yaratish borasida I.V.Robert, P.V.Apatova, Ya.Yu.Xibkinlar ilmiy izlanish olib borgan. Pedagogik faoliyatda pedagogik dasturiy ta'minotlarni qo'llash, elektron darsliklar va qo'llanmalar yaratish, multimedia, virtual reallik vositalaridan foydalanilib, ta'lim jarayonida gipermatnli tizimlardan foydalanish muammolarini N.I.Taylaqov, O.B.Bogomolova, R.R.Boqiyev, U.Yu.Yuldashev, F.M.Zokirovalar o'rgangan. Bundan tashqari, o'quv jarayonida imitatsion modellardan foydalanishni M.H.Lutfullayev tadqiqi qilgan bo'lsa, amaliy dasturiy ta'minotdan foydalanish xususiyatlarini V.V.Anisimov va M.Mamarajabovlar tadqiq etganlar.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishida fan bo'yicha yaratiladigan virtual o'quv laboratoriyalarni yaratishning ilg'or pedagogik texnologiyalaridan va vositalaridan hamda ularni qo'llanilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirish hamda yosh avlodni yuqori saviyada tarbiyalashni ta'minlash maqsadida milliy qadriyatlar singdirilgan fanlar bo'yicha elektron o'quv-uslubiy majmualar yaratish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar qatoriga kiradi[3,4,5]. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'ymoqda. Shuning uchun milliy istiqbol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi elektron o'quv-uslubiy majmualarining yangi avlodini

yaratishni talab qilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga mos keladigan hamda Davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»ning asosiy vazifalaridan biri sifatida elektron o'quv-uslubiy majmualarining yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, psixologik-pedagogik va metodik talablarni ishlab chiqish, elektron o'quv-metodik majmualaridan to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakat miqyosida zamonaviy elektron o'quv-metodik majmualarni tayyorlash bo'yicha strategik masalalar ko'lamini aniqlash belgilangan [9].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- fan bo'yicha MOODLE tizimida masofaviy multimediali elektron o'quv kursi yaratilgan;
- masofaviy multimediali elektron o'quv kursi interfeysida fanning o'quv-uslubiy majmuasi tuzilmasi to'liq yoritilgan;
- virtual laboratoriyani yaratishda HTML, Delphi EmparcaderoXE3 dasturlash tillari va Camtasia Studio7 dasturidan samarali foydalanilgan;
- virtual laboratoriyada o'quv videoroliklaridan foydalanilgan;
- yaratilgan virtual laboratoriyaning foydalanuvchilarga qulay va soddaligi ta'minlangan;
- talabalar bilimini baholashda test tizimidan foydalanilgan.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi matni kompyuterda terilgan 83 bet hajmidan iborat bo'lib, uning strukturasi kirish, 4ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar tashkil qiladi.

1-bob elektron o'quv materiallari va virtual laboratoriyalarning shakli va ta'lim jarayonidagi o'rni, virtual laboratoriyalarning tarkibiy qismlari va ularni tashkil qilish bayon etilgan.

2-bobda axborot-tanuvchi tizimlar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish tahlili, laboratoriya ishlarini bajarishning asosiy

maqsadi va mazmuni hamda hisobot tayyorlash tartibi ko'rsatib o'tilgan.

3-bobda "Axborot-tanuvchi tizimlar" fanidan MOODLE tizimida yaratilgan masofali o'qitishga mo'ljallangan multimediali elektron o'quv kursi sahifasi va undan foydalanish tartibi to'liq yoritib berilgan.

4-bobda "Axborot-tanuvchi tizimlar" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun yaratilgan virtual laboratoriyaning tuzulishi va ishlash tartibi, kompyuter sinflarida hayot faoliyati havfsizligi qoidalariga rioya qilish qoidalari keltirilgan.

Xulosa qismida magistrlik dissertatsiyasida olingan asosiy natijalar va xulosalar keltirilgan. Ilovada virtual laboratoriyani yaratishda foydalanilgan dastur oynalari kodlari keltirilgan. Adabiyotlar ro'yxati qismida magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Maqolalar. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 5 ta ilmiy maqolada nashr etilgan.

	Maqola nomi	Hajmi (bet)	Chop etilgan to'plam	Hammualiflar
1	Проектирование электронного учебного пособие для лабораторных занятий по предмету информационно-распознающие системы	3	"Mustahkam oila yili" Davlat dasturi asosida o'tkazilgan talaba va magistrantlarning VII ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari to'plami. Samarqand 2012- yil, 25-27 may, 99-102 bet.	
2	Maksimal intervalga va minimal rangga ega bo'lgan klassifikatorlarni topuvchi virtual laboratoriya yaratish	2	Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini samarali rivojlantirish istiqbollari respublika ilmiy-texnik konferensiyasining ma'ruzalar to'plami, 4-qism. Toshkent, 2014-yil, 13-14 mart, 42-44 bet.	Bekmurodov D.Q.
3	Elektron darsliklarning o'quv jarayonida	2	Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini samarali	Bekmurodov Q.A.

	qo'llanilishining ahamiyati		rivojlantirish istiqbollari respublika ilmiy-texnik konferensiyasining ma'ruzalar to'plami, 4-qism. Toshkent, 2014-yil, 13-14mart, 44-46 bet.	
4	Moodle tizimida "Axborot-tanuvchi tizimlar" fani bo'yicha o'quv materiallari tayyorlash	2	Intelektual salohiyatli iqtidorli yoshlar XI an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari to'plami. Samarqand, 2014 yil, 23-24 may.	Xudoyberdiyev A.N.
5	Timsollarni anglovchi tizimlar fanidan laboratoriya mashg'uloti uchun virtual laboratoriya yaratish	4	Innovatsion fan-ta'lim tizimini rivojlantirishning barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli va ahamiyati respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari to'plami. Toshkent, 2014 yil, 30 may.	Bekmurodov D.Q.

I bob. Elektron o'quv materiallari va virtual laboratoriyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni

1. Asosiy o'quv materiallarining elektron shakli

Bosma shaklda bayon etilgan asosiy, tushuntiruvchi, amaliy matnlarning ovoqli elektron versiyasi taqdim etiladi.

Gipermatn- elektron shaklda taqdim etilgan hamda tarmoqlangan bog'lanishlar tizimi bilan ta'minlangan, uning bir fragmentidan boshqasiga darhol o'tish imkoniyatlari oldindan berilgan matn.

Gipermediya – tarkibiga turli tipdagi tuzilgan axborot vositalaridan (matn, illyustratsiya, tovush, video va boshqalar) tuzilgan gipermatn.

Multimediali vositalar - bularga turli tipdagi axborotlarni va jarayonlarni matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirilgan va jarayonli ko'rinishda amalga oshirishning kompyuterli vositalari kiradi.

Virtual obyektlar yoki jarayonlar – haqiqiy mavjud bo'lgan, shuningdek tasavvur qilinadigan obyektlar yoki jarayonlarning elektron modeli.

Elektron tajriba – real obyektlar, mahsulotlar va mavjudotlar ko'rgazma modellarini yaratish va izlanish imkonini beruvchi elektron muhit.

Elektron lug'at – an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko'rsatma bilan istalgan dasturdan chaqirilishi mumkin. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obyektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Elektron testlar – saqlangan, ishlov berilgan va baholash uchun kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlar berilishi o'rganilgan matnni talabning qanchalik darajada o'zlashtirganligi o'z-o'zini baholash imkonini beradi

Elektron topshiriqlar - o'qituvchiga ta'lim oluvchilarning individual

imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o'zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko'rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar ta'lim oluvchilarga an'anaviy «qog'oz» li va elektron variantlarida tavsiya etilishi mumkin.

Elektron nazorat (testlashtirish)- elektron o'quv adabiyotining komponenti bo'lib, an'anaviy kompyutersiz testlashtirishning analogidir. Elektron testlashtirish holatida kompyuter test va uning natijalarini ko'rsatib beradi, bu bilan bog'liq bo'lgan algoritmlarni joriy qiladi. (Masalan, bajarilgan yoki o'tkazib yuborilgan topshiriqlarga qaytish imkoniyatining borligi yoki yo'qligi, bitta testga vaqtning chegaralanganligi va hokazo).

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlarning elektron shakli. Savol va topshiriqlar tizimi-zamonaviy o'quv darsligining yetakchi va jadal rivojlanayotgan ko'rsatkichidir. Savollar va topshiriqlarning elektron shaklda berilishi talabaga o'z-o'zini baholash ularning faollashuvini va bilimlarni mustahkam egallashlarini ta'minlaydi, ularning kasbiy qiziqishlarini rivojlantiradi, ishlab chiqarish sharoitlarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Talaba savollar va topshiriqlarni kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib bajaradi.

Foydali dasturlar. Bularga mazkur darslikning elektron qismidan foydalanish tartibi, o'quv materialini o'rganishga tegishli elektron vositalar (multimedia, virtual stendlar, animatsiyalar va h.k.) va ulardan foydalanish tartiblari kiradi[8,9].

2. Virtual laboratoriya va uning natur laboratoriyalardan farqlari

Hozirgi vaqtda kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasi ilmiy va amaliy tadqiqotlarda atrof-muhitni bilishda asosiy metodlar sirasiga kiradi. Bunday texnologiyalarni ta'limda qo'llash, umumta'lim maktablarida, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga olib kelishi mumkin. Kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasi ta'lim tizimida o'qitish sifatini yuqori darajaga ko'tarishga olib keladi. Oliy ta'lim

muassasalarida boshqa ta'lim muassasalaridagi kabi o'qitish metodlari juda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki o'qitish metodlarida texnik vositalarni qo'llash yuqori o'rinda turadi. Texnik vositalar yordamida o'quvchilarga berilayotgan o'quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyati yaratiladi. Yaqin vaqtlargacha texnik o'qitish vositalari sifatida kino va televideniya ta'lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o'quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ham ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tatbiq etilishi nuqtai nazaridan kompyuter asosidagi modellashtirish va imitatsion modellashtirish bir-biriga o'xshash vazifalarni bajaradi. Ya'ni obyekt (ta'lim jarayoni nazarda tutilmoqda) ichki va tashqi xossalarini namoyon qilish imitatsiya yo'li bilan ko'rsatiladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda virtual laboratoriyaga quyidagicha tarif berish mumkin.

Virtual laboratoriya – bu real hodisa va jarayonning kompyuter dasturlari asosidagi adekvat yoki yaqinlashtirilgan laboratoriyasidir[8,9].

Kompyuter asosidagi virtual laboratoriyani yaratishda quyidagi bosqichdagi vazifalar bajariladi:

- Obyektlarning elementlari aniqlanib, ular bilan bog'liq hodisalar o'rganiladi;
- Predmet soha va undagi masalalarning qanday ko'rinishda bo'lishi va ular bilan bog'liq hayotiy vaziyat aniqlanadi;
- Obyektning matematik va obrazli modeli tuziladi;
- Modelda ishtirok etgan bosh omillar aniqlanadi (ikkinchi darajalilari tashlab yuboriladi);
- Modelning xususiyatlarini aks ettiruvchi algoritim va dastur tuziladi;
- Algoritim va dastur asosida obyektlarning xususiyati tekshiriladi yoki namoyish qilinadi.

Virtual laboratoriyadan o'quv qo'llanmalarda foydalanish, analitik (hisoblash va mantiqiy) usulda yoki kompyuterning obrazli ko'rinishida o'quv

materiallarini taqdim etish imkoniyatlarini hamda o'rganilayotgan obyektning ichki va tashqi xossalarini namoyon qilishga zamin yaratadi. Virtual laboratoriya asosida multimediali elektron qo'llanmalar yaratish va ulardan foydalanish ishlari yo'lga qo'yiladi.

Hozirda virtual laboratoriyalar ikki yo'nalishlarda qo'llaniladi.

Eksperiment natijalarni hosil qiluvchi virtual laboratoriyalar. Ushbu laboratoriya fanda aniqlangan matematik modellardan foydalangan holda eksperimental tadqiqotlarni olib boradi.

Statistik holatlarni tasvirllovchi virtual laboratoriyalar. Ushbu laboratoriyalar ilmiy kuzatishlar natijasida aniqlangan obyektlarni o'quv jarayonida tushuntirish maqsadida yaratiladi.

Virtual laboratoriya, birinchi bo'lib fiziologiya sohasida tadqiqotlar olib borish natijasida vujudga keldi. Keyinchalik virtual laboratoriyani boshqa sohalarda qo'llash yo'lga qo'yilgan. Virtual laboratoriyaning natur laboratoriyadan farqlanishi, yaratilgan matematik modelga bog'liq bo'ladi. Matematik model qanchalik to'g'ri yaratilgan bo'lsa, virtual laboratoriya natijalarining aniqligi, natur laboratoriya natijalariga shunchalik yaqin bo'ladi.

Statik holatlarda virtual laboratoriyaning aniqligi tuzilgan ssenariyaga bog'liq bo'ladi. Ssenariya esa ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tuziladi. Statik holdagi virtual laboratoriya natur laboratoriyalardan deyarli farq qilmaydi, sababi statik laboratoriyalarda faqat harakatlanish mavjud. Shuningdek tabiatdagi real obyektning kompyuterdagi obrazi yordamida harakatga keladi.

Virtual laboratoriyani o'quv jarayoniga tatbiq etishning yana bir muhim omillaridan biri elektron darsliklar, qo'llanmalar va kurslar yaratishdir. Elektron darsliklar va qo'llanmalar ma'ruza mazmunini boyitish bilan birga ularni yangi materiallar bilan to'ldirishga imkoniyat yaratadi. Elektron darsliklar va qo'llanmalarining yaratilishi va ularni o'quv jarayoniga qo'llanilishi ta'lim muassasalarida elektron kutubxonalarni yaratishni taqazo etadi. Ta'lim muassasalarida yagona katalog tizimiga ega bo'lgan kutubxonalarning paydo

bo'lishi va lokal tarmoqning yaratilishi kutubxonalarga bog'liq muammolarni yechishga olib kelishi bilan bir qatorda ularning ish samaradorligini oshirish va muvofiqlashtirishga olib keladi.

Virtual laboratoriyaning muhim jabhalaridan biri – bu masofali ta'lim tizimida o'quv materiallarini tashkil qilishdir. Masofali ta'lim tizimining asosini kompyuter, axborot va pedagogik texnologiyalar tashkil etadi. Ta'limda axborot texnologiyalari haqida gapirganimizda birinchi navbatda masofali ta'lim, interaktiv pedagogika va har xil ko'rinishdagi o'qitish, didaktik tizimlarni nazarda tutamiz.

Virtual laboratoriya va kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy qilishning bugungi darajasini tahlil qilganimizda quyidagi holatni ko'ramiz. Bugungi kunda kompyuter imitatsion modellari sohasida ta'lim tizimiga doir yaratilgan ishlarni qaraganimizda, ya'ni mavjud dasturiy vositalardan foydalangan holda ularning ma'lum bir yo'nalishlariga taalluqli tomonlari o'rganilayotganligi va ana shu nuqtai nazardan ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalari ko'rilganligini ko'rish mumkin.

Ta'lim tizimining maqsadi imitatsion modellarni o'quv jarayoniga qo'llash tomonida bo'lib, bu borada bir qator yondashishlar mavjuddir.

Virtual laboratoriya ularga xos interfaollik sifati, egiluvchanligi va har xil turdagi multimediali o'quv materiallari bilan birgalikda ishlay olishi (integratsiya) nuqtai nazaridan foydali hisoblanadi. Bundan tashqari imitatsion modellarda o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari ham e'tiborga olinadiki, bu ularni yanada yuqori saviyaga ko'taradi.

Virtual laboratoriyaning interfaolligi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda taqdim etishga qaraganda katta muvaffaqiyati hisoblanadi.

Interfaollik deganda ma'lumotlarni taqdim etish vositasida foydalanuvchining talabiga javob olish tushuniladi. Interfaollik ma'lum bir davrda (chegarada) ma'lumotlarni taqdim etishni boshqarishga imkoniyat yaratadi. O'quvchilar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni tanlash, natijalarni o'rganish hamda dasturning talabiga binoan foydalanuvchilarning xohishlarini

e'tiborga oladi.

Virtual laboratoriya quyidagi bosqichlarini o'z ichiga oladi:

- o'quvchilar tomonidan axborotni bir nechta qabul qilish kanallaridan bir vaqtda foydalanish va buning natijasida ma'lumotlar integratsiyasini tashkil qilish;
- murakkab tajriba jarayonlarini imitatsiya qilish;
- jarayonlarni dinamik taqdim etish orqali tasavvur qilish qiyin bo'lgan (abstrakt) ma'lumotlarni vizuallashtirish (obrazlar ko'rinishida taqdim etish);
- har xil darajadagi murakkab (kognitiv) tuzilmalarni rivojlantirish imkoniyati va o'quvchilarning qabul qilish darajasi bilan o'quv materiallarini bog'lash kabilar kiradi.

Virtual laboratoriyadan foydalanganda o'quvchilar o'rganayotgan o'quv materialini takror o'qishi, uning namoyish etish tezligini o'zgartirishi, ya'ni o'zlarining qabul qilish qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kerakli rejimni tanlashlari mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, multimediali dasturlaidan ta'lim jarayonida foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish lozim. Virtual laboratoriyaning keng tarqalmaganligi zamonaviy kompyuter texnologiyalarida apparat va dasturiy ta'minotning to'liq talabga javob bera olmasligi bilan xarakterlanishi mumkin. Ya'ni kompyuterning apparat va dasturiy ta'minoti imitatsion modellar talab qilgan ehtiyojni qondira olmasligi mumkin. Bundan tashqari multimedia texnologiyalaridan foydalanish uchun shu sohani tegishli mutaxassisi yoki shu sohada ishlay oladigan fan o'qituvchisi talab etiladi. O'qituvchilar talabalarga o'qish jarayonida sodir bo'ladigan savollarga javob berish bilan bir qatorda o'quv jarayonini boshqarib borishni nazorat qilmoqlari lozim.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar (o'rganuvchilar) birinchi marta eshitgan ma'lumotlarini to'rtidan bir qismini, ko'rganda uchdan bir qismini, eshitish va ko'rishni birga tashkil qilganda ma'lumotning yarmini esda qoldirishi aniqlangan. Bu jarayonga multimedia

dasturlarini tatbiq etganda, ya'ni eshitish, ko'rish va mulohaza yuritish birgalikda olib borilganda o'zlashtirish foizi 75% ga ko'tarilganligi aniqlangan.

3. Virtual o'quv laboratoriyani loyihalash aspektlari

Ta'limni axborotlashtirishda, bo'lajak kadrlarning axborot va kommunikatsion texnologiyalarni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda, aniq fan sohasida kadrlar tayyorlashni axborot va kommunikatsion texnologiyalarni kommunikatsion texnologiyalari vositalari yordamida jadallashtirish lozim. Keyingi vaqtlarda, ta'limda axborot va kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish sohasida yangi "Virtual o'quv laboratoriya" so'zi paydo bo'ldi. Virtual o'quv laboratoriya ochiq va masofaviy o'qitish g'oyasiga muvofiq bo'lib, ta'lim jarayonidagi moddiy-texnik ta'minot borasidagi muammolarni oz bo'lsada dolzarbligini kamaytiradi.

Virtual o'quv laboratoriya bo'yicha ilmiy-metodik ishlarning mavjudlari ham asosan virtual asbob va ularni laboratoriya mashg'ulotlarida qo'llashning yoritilishi bilan cheklangan, biroq, bizning fikrimizcha, virtual o'quv laboratoriyasida faqatgina virtual asboblardan emas, balki virtual o'quv xonalari texnik obyektlar loyihasi, matematik va imitatsion modellash tizimlari, amaliy dasturlar o'quv va ishlab chiqarish paketlarini o'z ichiga oladi. Virtual o'quv laboratoriyaning o'zi esa faqatgina laboratoriya mashg'ulotlarida emas, balki talabalarning kurs va diplom loyihalarida, o'quv-tadqiqot ishlarida qo'llanilishi mumkin. "Virtual laboratoriya" tushunchasining mohiyati tarkibiy qism bo'lgan virtual asbob yordamida (oddiy elektron asbob bilan ishlagandek) kompyuterda ishlash imkoniyatini beradigan, oddiy kompyuterga qo'shimcha qilingan apparatli va dasturli vositalar to'plamini ifodalashdan iboratdir. Virtual asbob va virtual laboratoriyaning muhim qismi - foydalanuvchining samarali grafik interfeysi (ya'ni, foydalanuvchining kompyuter bilan o'zaro aloqalarining qulay, interfaol rejimini ta'minlovchi), odatiy predmetli sohada ko'rgazmali grafik namunalar ko'rinishida grafik menyu tizimi bilan dasturli asbob hisoblanadi.

O'quv virtual laboratoriya - bu yakunlangan dasturli mahsulot bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy konsepsiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Metodologik jihatdan virtual laboratoriyalarni sun'iy intellekt tizimlarida qabul qilingan jarayon, deklarativ va gibrid tizimlari turlariga asoslangan bilim berish, tasavvur modellaridan kelib chiqib, guruhlash mumkin. Virtual o'quv laboratoriyadagi amaliy jarayon asosini amaliy dasturlar o'quv paketi yoki ularning sanoat analoglari tashkil etadi. Ularni yaratishda asosiy e'tibor odatda matematik modellash, o'rganilayotgan jarayon yoki obyektlar optimallashtirish va hisob ishlariga qaratiladi. Amaliy dasturlar paketi bilan o'quv ishlarida talabalar maxsus mutaxassislik malakalariga ega bo'lishlari kerak, ko'pchilik hollarda ular hali malakalarga ega bo'lmaydilar. Bunda quyidagi tamoyillarga asoslangan maxsus didaktik interfeys, ssenariyli sxemalar yordam berishi mumkin:

- o'rganish faoliyatini faollashtirish uchun musobaqalashish vaziyatlarini yaratish;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini siklik, yopiq boshqarishni tashkil etish;
- qiziqarli namunaviy yoki o'rgatuvchi masala yoki masalalar to'plamini tanlash.

Bu tamoyillarni amalga oshirish tajribasi ularning yuqori didaktik samarasini ko'rsatadi. Texnik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda texnik obyektlar loyihasini o'rganish bo'yicha laboratoriya ishlari katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda maxsus o'quv xonalari yaratilyapti. Ammo ularni yaratish uzoq vaqtni, jihozlash va tarkibi esa katta moddiy resurslarni talab qiladi. Ta'lim jarayonida virtual xonalardan foydalanish haqiqiy o'quv xonalaridan foydalanishni butunlay chetlashtirmaydi. Lekin, bunday mashg'ulotlarning elektron ko'rinishi quyidagilarga imkon beradi:

- talabalarning o'quv ishlarida faolliklari va mustaqilliklarini oshiradi;

- o'quv materialining multimedia ko'rinishidaligi bilan uni qabul qilishni osonlashtiradi;
- har bir talabaning materialni o'zlashtirishi bo'yicha to'lik nazoratni ta'minlaydi;
- imtixon va reyting nazoratlari tayyorlanishda takrorlash va trening jarayonini osonlashtiradi;

Fanlar bo'yicha fizik asboblardan va qurilmalar bilan shaxsan tanishmasdan va ularda ishlash ko'nikmalarini shakllantirmasdan turib, yetuk mutaxassisni tayyorlashni tasavvur qilish qiyin. Masofaviy ta'limni tashkil etish sharoitlarida laboratoriya praktikumining an'anaviy shakllari foydalanuvchi (talaba tajriba o'tkazuvchi)ning modellashtirish muhiti bilan samarali interfaol o'zaro aloqalariga erishish yo'lida apparatli-dasturli (texnik) vositalar, kompyuter grafikasi va animatsiyadan foydalanib, fizik tajribani imitatsiya qilish hamda matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanuvchi, virtual laboratoriyalar bilan to'ldiradi. Virtual laboratoriyaning muhim jihati asboblarning odatiy tasvirlari bilan birga, haqiqiy signallarni imitatsiyalash modellarinigina emas, balki zarur ma'lumotlar fayllarida saqlanadigan avvalgi tajriba ma'lumotlar fayllarida foydalanish yo'li bilan tajribani ko'rgazmali imitatsiya qilish mumkinligi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda laboratoriya ta'minotini takomillashtirishning yo'nalishlaridan biri ularni kompyuter asosiga o'tkazishdir. Masalan, fizika fani uchun yaratilgan virtual laboratoriyalar [eduportal.uz, fizika.uz] MS Macromedia Flash dasturida, ko'p, sxemotexnika va elektronika fanlaridan virtual laboratoriyalarni yaratishda Electronics WorkBench dasturi orqali elektr va elektron sxemalarni modellashtirish uchun ishlatiladi. Nisbatan kichik hajmga ega bo'lishiga qaramasdan unda katta miqdordagi real elementlarning modellari mavjud. U sxemotexnik tahrirlagich va SPICE simulyatorni o'z ichiga olgan integrallashgan paket bo'lib hisoblanadi. Electronics WorkBench dasturi signallar generatorlari, ossilloqraflar, testerlar, jahondagi ko'plab taniqli firmalarning (Motorola, National, Philips, Toshiba va boshqalar) yarim o'tkazgichli priborlari

va mikrosxemalarini o'z ichiga oluvchi katta bibliotekaga ega. Uning yordamida elektr zanjirlar, analog hamda raqamli elektron sxemalarni analiz qilish mumkin.

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari fanlarida laboratoriya mashg'ulotlarini Vissim, MathWork, Matlab simulyatorlari orqali virtual modellarini yaratilmoqda [9].

4. Virtual laboratoriyalarning tarkibiy qismlari va ularni tashkil qilish

Virtual laboratoriyaning interfaol dasturlari asosan shaxsni faollashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular talabalarga o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishiga imkon yaratib beradi va ularga quyidagilar kiradi:

- maqsadli (men uchun bu o'quv materialini bilishim zarur va muhim. Bu ishni bajarishni bilishim lozim);
- tadqiqotchilik (o'quv materialini ustida ishlash bilan men nafaqat biror-bir yangi narsani bilib olaman, balki o'zim bu ijodiy jarayonda ishtirok etaman);
- badiiy his-tuyg'u (o'quv materialini o'rganishda olingan natijalardan va o'quv materialini o'rganish jarayonidan qanoat hosil qilaman);
- o'yinli (bu o'qitish shakli qiziqarli, o'quv materialini o'rganishni boshlab men o'zimni to'xtata olmayman va uni oxirigacha o'rganishni xohlayman);
- tashabbusli (multimediali elektron darslikda badiiy his-tuyg'u va ma'lumotlar berish darajasini uzviy ravishda bog'langan holda olib borish).

Insonga ta'sir etish nuqtai nazaridan imitatsion modeli dasturlarni yangi sun'iy san'at asari sifatida baholash mumkinki, uning muhim xususiyatlaridan biri mukammal ma'lumotlar bilan boyitilishi va interfaolligidir.

Virtual laboratoriyadan ta'limda quyidagi ko'rinishlarda foydalaniladi.

1. Oddiy virtual laboratoriyadan foydalanish. Bunday holat kompyuter imitatsion model deb ham yuritiladi.

Amaliyotda ayrim virtual laboratoriya o'zlarining mazmuniga ko'ra oddiy

tuzilmaga ega bo'ladi. Bu shakldagi imitatsion modellarni kinofilmlardagi oddiy og'zaki tushuntirish sifatida qarash mumkin. Ayrim hollarda imitatsion modellar oddiy ko'rinishda bo'lib, kurs bo'yicha ma'lum bir amallarni bajara olish imkoniyatini beradi. Bu holda ular adabiyotlarni eslatadi, lekin ular murakkab bo'lgan namoyish qilish orqali mavzularni o'rganishga imkon yaratadi. Bu modelning kamchiligi shundaki, foydalanuvchi talab qilingan o'quv (kerakli) manbaini topganidan so'ng, ular juda ham chegaralangan holda o'quv materialini tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, foydalanuvchilar ko'p hollarda o'quv materialini o'rganishda ortga va oldinga murojaat qilishlariga to'g'ri keladi, oddiy tuzilmalarda bunday imkoniyat yo'q.

2. Oddiy bo'lmagan kompyuter imitatsion modellari.

Ko'p hollarda ma'lumotlar gipermurojaat ko'rinishida taqdim etiladi. Bunday holda imitatsion modellar interfaol imkoniyatga ega bo'ladi. Talabalar bunday ko'rinishdagi imitatsion modellardan foydalanganda aniq savollar bilan murojaat qilishlari mumkin. Oddiy adabiyotlardan farqli o'laroq bu turdagi imitatsion modellarda o'quv materiallarini matn, ovoz, grafika va animatsiya orqali integratsiya qilish imkoniyati mavjud. Bunday ko'rinishdagi imitatsion modellardan foydalanish orqali to'liq matnni izlash amallarini bajara olish va bir qator boshqarish elementlarini kiritish mumkin.

3. Amaliy qo'llanma sifatida.

Bu turdagi kompyuter imitatsion modellari talabalarga o'quv materiallarini o'rganishda berilayotgan masalalarni qism masalalarga bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida talabalarga masalalarni yechish, tarkibini tuzish imkoniyatini beradi. Bu turdagi kompyuter imitatsion modellarida ifoda etish uslubi birinchi va ikkinchi turdagi imitatsion modellarning orasida joylashgan. Bu imitatsion modellarda ta'lim mazmuni o'yinlar, musobaqa yoki tadqiqotchilik ko'rinishida taqdim etiladi.

Mutaxassislarning fikricha eng murakkab avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini o'rganish uchun ular interfaol imitatsion modellar ko'rinishida yaratilgan bo'lishi lozim. Kelgusida bizning nazarimizda shunday evristik


imitatsion algoritmlar yaratiladiki, ular yordamida insonlar kompyuter tizimlariga moslashib qolmasdan, balki kompyuterlar ham insonning qabul qilish iqtidoriga qarab moslashish imkoniyati yaratiladi.

Virtual laboratoriyalarni tashkil etishda bir qancha dasturiy vositalar qo'llanilgan. Virtual laboratoriyani yaratilishiga qarab dasturiy vosita tanlash imkoni mavjud. Misol sifatida qurilmalar orqali bog'lanish orqali laboratoriya yaratish uchun LabView dasturi ishlatiladi. Bu dasturda o'quv jarayonida emas balki katta hisoblanishlar maqsadida qo'llaniladi. Hozirda o'quv jarayoni uchun Macromedia Flash dasturi yordamida laboratoriyalar yaratilmoqda.

Virtual laboratoriyalarning tarkibiy qismlari quyidagi elementlardan tashkil topishi lozim:

- muqova;
- asosiy taqdimot oynasi;
- mundarija;
- VL ning qisqacha annotatsiyasi;
- VL ning «to'liq bayoni»;
- VL ning qisqacha bayoni (masalan, sxema ko'rinishda);
- adabiyotlar ro'yxati;
- bilimni nazorat qilish mexanizmi;
- matn fragmenti bo'yicha izlash amalini bajarish;
- mualliflar ro'yxati va ular haqida ma'lumot;
- VL bilan ishlash uchun ma'lumotlar tizimi.

Virtual laboratoriyaning funksional sxemasini quyidagicha tasvirlash mumkin:



1.1-rasm. Virtual laboratoriyaning tarkibiy qismlari.

Virtual laboratoriyalarni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor berish kerak bo’ladi:

1. Modellashtirilayotgan obyekt haqida to’liq nazariy bilimlar to’planadi;
